

AHOLINI STATISTIKASI TAHLILINING AYRIM XUSUSIYATLARI

G'ulomqodirova Madina Tursunboy qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotasiya: *Ushbu maqolada aholining demografik jarayonlarini o'rganish manbalari va so'nggi yillarda O'zbekistonda aholi demografiyasi statistikasi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar va yangi demografik ko'rsatkichlarning kirib kelishi ochib berilgan. Shuningdek, aholi demografiyasi statistikasini samarali rivojlantirish uchun me'yoriy-huquqiy baza yaratilayotganligi hamda aholi demografiyasini aniqroq o'rganishga imkon beruvchi, jumladan, aholining qarishi, aholi takror barpo bo'lishining brutto va netto hamda nikohning mustahkamlik koeffitsiyentlari, oilaga tegishli ko'rsatkichlarning kengayayotgani aytilgan. Mamlakatning demografik vaziyatiga baho beruvchi xalqaro mezonlarni amaliyotda qo'llash, aholining tabiiy va mexanik harakati ko'rsatkichlarini to'plash jarayonlari va aholini ro'yxatga olish sohasida ko'plab ishlar amalga oshirilganligi haqida ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *aholi demografiyasi, aholini ro'yxatga olish, joriy hisob, takomillashtirish, rivojlanish, axborot almashinuvi, demografik vaziyat, aholi harakati, ma'muriy manbalar, mehnat unumdorligi, aralash usul, demografik koeffitsiyentlar, xalqaro mezonlar.*

Abstract: *This article reveals the methods of studying the demographic processes of the population and the reforms carried out in Uzbekistan in recent years on the statistics of population demographics and the introduction of new demographic indicators. It is also noted that a regulatory framework is being created for the effective development of population demographics statistics, which allows a more accurate study of population demographics, including brutto and netto of population aging, population re-building, and marriage strength ratios, expanding family-related indicators. It is noted that a lot of work has been done in the field of practical application of international criteria for assessing the demographic situation in the country, the processes of accumulation of indicators of natural and mechanical movement of the population and the conduct of censuses.*

Keywords: *population demographics, Census, Current Account, improvement, development, information exchange, demographic situation, population movement, administrative sources, labor productivity, mixed method, demographic coefficients, international criteria.*

KIRISH

Aniq va sifatli statistik ma'lumotlar mamlakatning buguni va kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy sohalardagi rivojlanish bosqichlarining poydevoridir. Mamlakatning demografik vaziyatiga baho berishda demografik jarayonlarni o'rganishning qaysi usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda aholi soni va mobilligining ortishi, qariyalar ulushining ko'payishi kabi demografik jarayonlarni turli darajalarda taraqqiy etgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) statistika ma'lumotlariga ko'ra, "ushbu o'n yillik oxiriga borib, dunyo aholisi taxminan 8,5 milliard kishiga, XXI asr o'rtalarida esa 9,7 milliardga yetadi. Qolaversa, 2037-yilga borib, Markaziy va Janubiy Osiyo eng ko'p aholi yashaydigan mintaqalarga aylanadi". Shu bois, barcha davlatlar tomonidan demografik jarayonlarni tartibga solish va boshqarish borasida maqsadli chora-tadbirlar keng miqyosda amalga oshirilmoqda.

Jahonda demografik jarayonlarni turli omillar hisobiga rivojlanishi yuzaga kelayotgan bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning ilmiy yechimini topish yuzasidan maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etmoqda. Jumladan, demografik jarayonlarni tahlil qilish va uni statistik baholash, uning kelgusidagi holati statistik prognozlarini ishlab chiqish, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi o'limini kamaytirish, umr ko'rish davomiyligini uzaytirish, demografik dividend olish, nooqilona migratsiya hajmini qisqartirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Demografik vaziyatni tahlil qilish demografik siyosat strategiyasini belgilab beruvchi konseptual, dasturiy hujjatlarni tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Tahlil yordamida birinchi navbatdagi yechimni talab qiluvchi eng keskin demografik muammolar aniqlanadi va shu tariqa mazkur siyosatning ustuvor yo'nalishlari belgilab beriladi. U bundan keyin demografik parametrlar o'zgarishlarini demografik siyosatni amalga oshirish boshlanishidan oldingi daraja bilan taqqoslash imkonini beradi. Uning asosida demografik siyosat samaradorligini baholash, demografik vaziyatdagi o'zgarishlar munosabati bilan uning amalga oshirilishiga zarur tuzatishlarni kiritish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

O'zbekiston Respublikasida aholi sonining joriy hisobini yuritish, birlamchi ma'lumotlar manbalari, jarayonlarni avtomatlashtirish, statistik ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, demografik jarayonlarni o'rganish usullari va aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan hujjatlar [1] va Vazirlar Mahkamasining qarorida [6] qayd etilgan.

Tug'ilish, o'lim, tuzilgan nikohlar, nikohdan ajralishlar va migratsiya ko'rsatkichlarini qayta ishlashda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining qarori va xorijiy hamda ichki statistik tasniflagichlar [9] asos hisoblanadi.

Maqolada aholi demografiyasi statistikasi masalalariga oid adabiy manbalardan foydalanildi. Mavzu doirasida O.D. Vorobeva, T.A. Dolbik-Vorobey, Q.X. Abduraxmonov, B.A. Begalov, M.B. Denisenko, N.M. Kalmikova, A.I. Alekseyev, V.A.

Kolicheva, R.A. Ubaydullayeva, O.B. Ata-Mirzayev, B.B. Usmonov, A.A. Kayumov, Z.N. Tojiyeva va boshqa xorijiy hamda mahalliy olimlar shug'ullangan.

Akademik Q.X. Abdurahmonov aholi migratsiyasiga umumiy ko'rinishda odamlarning bir mintaq (mamlakat, shahar, qishloq)dan boshqasiga, qator hollarda katta guruh holida va uzoq masofaga ko'chishi sifatida ta'riflagan [3].

Aholini ro'yxatga olishda, aholining aniq soni, yoshi, oilaviy holati, fuqaroligi va milliy tarkibi (barcha aholi punktlari uchun), ularning ma'lumoti, kasbi, daromad manbalari, mehnat resurslari, bandlik va ishsizlik haqida batafsil ma'lumot to'planadi [4].

Taniqli geograf A.I.Alekseyev o'tmishning tendensiyalarini va kelgusida rivojlanishning ehtimoliy variantlarini hisobga olmagan holda bir muncha boshqacha ta'rif beradi: "Demografik vaziyat – bu mazkur hududda yuzaga kelgan, aholining ushbu payt uchun muayyan yosh, jinsiy tarkibi va uning sonining dinamikasini yaratuvchi tug'ilish, o'lim va migratsion harakatchanlik nisbatidir" [5].

Aholining turli maqsadlarda, ya'ni yangi yerlarni o'zlashtirish, daromad topish, o'qish, yashash hamda siyosiy nuqtai nazardan yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o'zgartirishiga "aholining mexanik harakati" deyiladi [8].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolaning ilmiy-nazariy asosini olimlarning adabiyotlari hamda

ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning aholi demografiyasini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari, yondashuvlari, tashkil etib, ular asosida tegishli yo'nalishlarda ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Mavzuni o'rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash, inkuktsiya, deduktsiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida demografik jarayonlarning roli katta bo'lib, aholi o'sishi, joylashuvi, demografik tarkibi va boshqa muhim jihatlarni ilmiy o'rganish katta ahamiyatga ega. Aholi ham ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste'molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shunday ekan birinchi o'rinda demografik jarayonlarni o'rganish manbalarini aniqlash va ularning uslubiy jihatlarini o'rganish muhim hisoblanadi. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari to'rtga bo'linadi. Birinchi manbasi, aholini ro'yxatga olishda davriylik, umumiylik va bir paytdalik, ro'yxatga olishning yakka tartibdaligi, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va aholini ro'yxatga olishning markazlashtirilganlik prinsiplariga amal qilinadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalarida ma'lumotlarni yig'ish usulidan kelib chiqib, ro'yxatga olishni o'tkazishda uchta asosiy yondashuv mavjud:

a) an'anaviy yoppasiga ro'yxatga olish usuli (bazan, faqatgina tanlama asos sifatida yoki nazorat maqsadida aholi registri ma'lumotlari bilan to'ldiriladi), ma'lum bir vaqtda (odatda) joylarda ma'lumotlarni to'plashga asoslanib, barcha savollar yoki ba'zi bir asosiy savollar bo'yicha ma'lumotlarni tanlama asosda (uzun/qisqa ro'yxatga

olish varaqasi) to'plashni nazarda tutadi. Bu yerda "ma'lumotlarni joylarda to'plash" atamasi keng ma'noda ishlatilib, joylarda ro'yxatga oluvchilarning faoliyati cheklangan yoki umuman mavjud bo'lmagan holatda, asosan internet jahon tarmog'i orqali amalga oshirilgan holda ro'yxatga olishni qamrab oladi. Ushbu yondashuv (odatda "an'anaviy aholini ro'yxatga olish" deb ataluvchi) ikkita yirik mamlakatda qo'llaniladigan muqobil ro'yxatga olish usullarini ham o'z ichiga oladi:

I. An'anaviy ro'yxatga olish (qisqa ro'yxatga olish varaqasi) har yili tanlangan savollar yangilanishi (uzun ro'yxatga olish varaqasi) orqali amalga oshiriladi (Amerika Qo'shma Shtatlari).

II. Uzluksiz ro'yxatga olish, ma'lum bir kun yoki qisqa vaqt ichida emas, balki bir necha yil ichida butun mamlakatni qamrab olgan yig'ilib boruvchi kuzatuvlar uzluksiz ma'lumot to'plash (Fransiya).

III. Aralash usul, bunda tanlangan o'zgaruvchilar bo'yicha yoppasiga ro'yxatga olish yoki tanlangan o'zgaruvchilar bo'yicha tanlama kuzatuvlar ma'lumotlari registrlar ma'lumotlari bilan birlashtirish.

IV. Registrlar va boshqa ma'muriy manbalardan foydalanish usuli (ba'zan tanlangan o'zgaruvchilar bo'yicha mavjud bo'lgan tanlama kuzatuvlar ma'lumotlari bilan to'ldiriladi).

Aksariyat mamlakatlarda ro'yxatga olish har 10 yilda bir marta o'tkaziladi. O'zbekiston hududida jami o'n marta aholini ro'yxatga olish o'tkazilgan. O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish birinchi marta 1897- yilda o'tkazilgan bo'lib, u Yevropaning boshqa mamlakatlaridagiga qaraganda deyarli 100 yil keyin amalga oshirilgan.

Demak ikkinchi manba aholi harakatini joriy hisobga olish. Bu jarayon ikkiga bo'linadi. Birinchisi aholining tabiiy harakati, ikkinchisi aholining mexanik harakati. Aholi tabiiy harakatlarining qayd etilishi fuqarolik holati dalolatnomalrining qayd etilishiga asoslanadi. Aholining tabiiy harakati, uning takror barpo bo'lishi bevosita (tug'ilish, o'lim) va bilvosita (nikoh, ajrim) ta'sir e'tuvchi demografik jarayonlarni o'z ichiga oladi. Tabiiy harakat haqidagi axborot asosida mamlakat aholisining soni, tabiiy harakatining nisbiy ko'rsatkichlari hisoblanib, ular asosida aholi soni va tarkibining istiqboldagi prognozi amalga oshiriladi. Demografik jarayonlarni qayd etish, birinchi navbatda ma'lum hodisaning huquqiy oqibatlari bilan bog'liq. Shu bois, mamlakatning barcha aholisi uchun majburiy hisoblanadi. Demografik jarayonlarni qayd etish muddatlari va tartibi har bir mamlakatning tegishli qonunlarida belgilanadi.

Aholining mexanik harakatlarini hisobga olinishi ko'chib kelishni statistik hisobga olish va ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalariga asoslanadi.


Demografik jarayonlarni o'rganishning uchinchi manbasi 1- rasmda keltirilganidek tanlama tadqiqotlar hisoblanadi. Aholi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish tizimida tanlama tadqiqotlar batafsil ma'lumotlarni qo'lga kiritish maqsadida olib borilib, ular aholi ro'yxati va joriy qayd etishdan jamlangan axborotga nisbatan to'la

va aniq bo'ladi. Asosiy axborot manbalaridan farqli ravishda ushbu tadqiqotlar aholining muayyan guruhiga tegishli ma'lumot olishga imkon yaratadi. Tanlama tadqiqotlar ikki usulda olib boriladi va ularning har biri muayyan afzallik va kamchiliklarga ega bo'ladi. Retrospektiv (anamnestil) va perspektiv tanlama tadqiqotlar mavjud.

Aholi registrlari demografik jarayonlarni o'rganishning to'rtinchi manbasiga kiradi. Bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy ho'jaligi haqida axborotga ega bo'lgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik tavsiflari to'g'risida ma'lumotlar jamlanadi. Shuningdek, registrga ma'lumoti, ish joyi, farzandlari va hokozolar kiritilishi mumkin. Registr asosini tashkil etuvchi asosiy tamoyil bu undagi axborotni muntazam ravishda va o'z vaqtida yangilab turish hisoblanadi.

Har qanday tadqiqot ishlarida o'rganilayotgan ob'ektning kelib chiqish manbalari o'rganiladi. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari to'rtga bo'linadi. Birinchisi va eng muhimi aholini ro'yxatga olish, ikkinchisi aholi harakatini joriy hisobga olish, uchinchisi tanlama tadqiqotlar va to'rtinchisi aholi registrlari hisoblanadi

(1-rasm).



1-rasm. Demografik jarayonlarni o'rganish manbalari

1-rasmda keltirilganidek demografik jarayonlarni o'rganishning birinchi manbasi aholini ro'yxatga olishga to'xtaladigan bo'lsak, ro'yxatga olish vaqtida mamlakatda yoki uning aniq belgilangan qismida ma'lum bir vaqtda yashovchi

barcha aholi to'g'risidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish, baholash, tahlil qilish va nashr ettirish jarayonlari amalga oshiriladi.

Respublikamizda demografik jarayonlarning holatini o'rganishda mamlakat hududida o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Manbalarda keltirilishicha, O'zbekiston hududida dastlabki aholi ro'yxati 1897- yilda o'tkazilgan bo'lib, ushbu ro'yxat ma'lumotlari XIX asr oxirida O'zbekistonda mavjud oilalar soni, aholi soni, yoshi va jinsi, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam bergan. O'zbekiston hududida

keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979 va 1989- yillarda aholini ro'yxatga olish ishlari tashkil etilgan.

1989-yildan keyin O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish o'tkazilmagan. Shuning uchun aholining soni, yosh-jins tarkibi, hududiy joylashuvi xususiyatlari va boshqa ijtimoiy-demografik holatlaridagi o'zgarishlar aholining joriy hisobi bo'yicha mavjud ma'lumotlarni qo'llashni sezilarli darajada cheklab kelayotgani bizga sir emas.

Ushbu dolzarb masalalarni hal etish va xalqaro darajada O'zbekistonning mavqeini yanada oshirish maqsadida aholini ro'yxatga olish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ilk hujjat 2019- yilning 5- fevralida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5655-son Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida 2022- yilda aholini ro'yxatga olishni o'tkazish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasida aholini ro'yxatga olish sohasida aniq maqsad sari yurilgan tarixiy qadam bo'ldi.

Konsepsiyaning kuchga kirishi aholini ro'yxatga olish sohasidagi qonunchilikning mustahkamlanib borishi uchun turtku bo'ldi. Xususan, (2020- yilning 16- martida O'RQ-611-son) "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni amaliyotga joriy etildi. Qonun bilan umumiy qoidalar, aholini ro'yxatga olish sohasini tartibga solish va aholini ro'yxatga olishni o'tkazish belgilandi.

Xalqaro ekspertlarning tavsiyalari asosida aholini ro'yxatga olish masalalariga oid 20 dan ortiq uslubiy qo'llanmalar, 1 ta statistik tasniflagich ishlab chiqilib, tasdiqlandi hamda ishda foydalanib kelinmoqda.

Xalqaro tashkilotlar va Statistika agentligi xodimlari hamkorligida "Yevropa Statistikalari Konferensiyasining 2020- yil raundida aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish bo'yicha Tavsiyalari" o'zbek tiliga tarjima qilinib, BMTning rasmiy veb-saytida ilk marotaba o'zbek tilida joylashtirildi.

O'zbekistonda aholini ro'yxatga olishga ko'rilayotgan tayyorgarlik ishlarini keng yoritib borish maqsadida aholini ro'yxatga olishning aholi.stat.uz rasmiy veb-sayti ishlab chiqilib ma'lumotlar yangilanib borilmoqda.

2021-yil 1-25-noyabr kunlari respublikaning 4 ta hududida ya'ni, Andijon viloyatining Xo'jaobod tumani, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiqtumani, Xorazm viloyatining Xiva shahri hamda Toshkent shahrining Yashnobod tumanida aholini sinov tariqasida ro'yxatga olish tadbiri o'tkazildi. Bugungi kunda tayyorgarlik jarayonining navbatdagi qismi respublika hududlaridagi mahallalarning xaritalari yangilanib xaritalarni chop etish ishlari yakuniga yetmoqda.

Aholini ro'yxatga olish natijalari demografik va ijtimoiy siyosatni belgilash bilan bir qatorda, respublika va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlari va dasturlarini tuzishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, keyingi o'n yillikka mo'ljallangan oilalarni qo'llab- quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni

shakllantirish, shifoxonalar, bolalar bog'chalari, maktablar va uy-joy qurilishini rejalashtirishda keng foydalaniladi.

Bugungi kunda O'zbekistonning demografik vaziyatiga baho berishda aholi harakatining joriy hisobi ma'lumotlariga tayanib kelinmoqda.

Respublikamiz MDH mamlakatlari orasida eng yuqoridemografik salohiyatga ega. 2021- yilda mintaqa aholisining 11,9 foizi, Markaziy Osiyo aholinisining 46,7 foizi O'zbekistonga to'g'ri kelgan.

Aholi soni bo'yicha O'zbekiston 242 ta davlat ichida 41-o'rinda, MDH mamlakatlarida Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turadi.

Biz aholisi yuqori sur'atlarda o'sib borayotgan mamlakatlar safiga kiramiz. Demak, O'zbekistonda 1991- yilda 21 106,3 ming kishini, 2022- yilda esa 36 024,9 ming kishini tashkil etdi (70,7 foizga o'sgan).

Aholi sonining joriy hisobini baholash oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayirish orqali aniqlanadi.

Tug'ilish, o'lim, tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlarni ro'yxatga olish Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligining fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) xizmatlari orqali amalga oshiriladi.

Ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlarni ro'yxatga olish fuqarolarning doimiy yashash joyidagi tuman va shahar ichki ishlar boshqarmasining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari tomonidan statistik hisobga olish talonlarini to'ldirish asosida amalga oshiriladi.

Amalyotga ko'ra tug'ilish, o'lim, tuzilgan nikohlar, nikohdan ajralishlar, ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlar kunlik asosda adliya va ichki ishlar vazirliklarining axborot tizimlari orqali integratsiya yo'li bilan Statistika agentligining ma'lumotlar bazasiga kelib tushadi.

O'zbekistonda demografik jarayonlarni statistik hisobga olish 2019- yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligining hududiy statistika boshqarmalari tomonidan aholining tabiiy harakati va migratsiyasi to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlarning birlamchi manbalari bo'lgan tug'ilganlik, o'lim, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralganlik


haqidagi dalolatnoma yozuvlari va ko'chib kelish va ketishni statistik hisobga olish talonlari Adliya vazirligining Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari hamda Ichki ishlar vazirligining Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari tomonidan statistika idoralariga qog'oz shaklda taqdim etib kelingan.

Mazkur holat FHDYo, ichki ishlar va statistika idoralarida dalolatnoma yozuvlari va statistik hisobga olish talonlarini rasmiylashtirish, taqdim etish va qayta ishlash jarayonlarida ko'p vaqt va xarajatlar sarflanishiga olib kelgan.

Shu davr mobaynida, statistika organlarida mazkur qog'oz shaklidagi dalolatnoma yozuvlari va statistik hisobga olish talonlariga O'zbekiston Respublikasi

Ma'muriy-hududiy tuzilmalarni (obe'ktlarni) belgilash tizimi (MXOBT), xalqaro kasalliklarning tasnifi, o'ninchi qayta ko'rish (XKT-10) va ISO 3166 xalqaro standartiga asosan "Jahon mamlakatlari" statistik tasniflagichlar yordamida kodlar birlashtirilib elektron bazaga qo'lda kiritilib kelingan.

Statistik ma'lumotlarning shaffofligini oshirish, foydalanuvchilarni tezkor va yangi statistik ko'rsatkichlar bilan ta'minlash maqsadida sohani rivojlantirishga oid Prezident va Respublika hukumatining qator normativ- huquqiy hujjatlari qabul qilindi.



2-rasm. Aholining birlamchi ma'lumotlarini elektron axborot almashinuv sxemasi

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31- iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3165-son, 2018- yil 12- iyundagi "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tizimini yanada takomillashtirishga doir

kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3785-son qarorlarida, adliya, sog'liqni saqlash va statistika organlaridagi axborot tizimlari bilan integratsiya qilish orqali ma'lumotlarni elektron shaklda taqdim etish belgilandi.

"Islohotlar amalda" tamoyili asosida 2019- yil mart oyida Adliya vazirligi va Statistika agentligining elektron axborot almashinuvi texnologik yo'riqnomasi va Ichki ishlar vazirligi va Statistika agentligining elektron axborot almashinuvi texnologik yo'riqnomalari tasdiqlanib axborot almashinuvi yo'lga qo'yildi. Elektron axborot almashinuvi sxemasi 2-rasmda keltirilgan.

Adliya, sog'liqni saqlash va statistika organlarining axborot tizimlari o'rtasida yo'lga qo'yilgan elektron axborot almashinuvi natijasida sohalarda faoliyat yuritayotgan xodimlarning ortiqcha ovoragarchiliklariga barham berilib mehnat unumdorligining oshishiga va ma'lumotlarning sifati hamda tezkorligiga erishildi.

Shuningdek so'nggi yillarda aholi demografiyasining bir qator ko'rsatkichlari, xususan, aholining qarishi, aholi takror barpo bo'lishining brutto va

netto hamda nikohning mustahkamlik koeffitsiyentlari xalqaro statistika talablariga moslashtirildi.

Islohotlar samarasi o'laroq 2018- yildan boshlab 1-Oila shakli davlat statistika hisoboti joriy etildi. Natijada respublikada demografiya statistikasi ko'rsatkichlariga quyidagi yangi ma'lumotlar kirib keldi:

- oilalar soni;
- kam ta'minlangan oilalar;
- 18 yoshdan kichik bolali oilalar;
- ko'p bolali oilalar (4 bola va undan ko'p);
- to'liq bo'lmagan oilalar;
- nogironligi bo'lgan shaxslar bor oilalar,
- surunkali kasalliklarga chalingan oila a'zolari bor oilalar;
- bir o'zi yashaydigan qariyalar soni;
- FHDYO bo'limlarida ro'yxatdan o'tmasdan nikoh qurganlar soni;
- xorijga ishlash uchun ketgan oila a'zolari bor oilalar;
- notinch oilalar.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan demografiya statistikasiga oid ma'lumotlar bilan foydalanuvchilar extyojlarini qondirish maqsadida ko'rsatkichlar ko'lamini oshirish yuzasidan sa'y-harakatlar olib borilmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, jamiyatda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida demografik vaziyat turadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatning demografik jarayonlarini tezkor va to'g'ri baholash maqsadga muvofiq. Respublikada ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish va hududlarni kompleks rivojlantirish dasturi strategiyalarini ishlab chiqishda aholining soni, yosh-jins tarkibi, hududiy joylashuvi xususiyatlari va boshqa ijtimoiy- demografik ma'lumotlardan foydalanish o'rinli hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi.

1. Demografik jarayonlarni to'laqonli baholash imkoniyatini to'liq ta'minlash maqsadida aholini ro'yxatga olish tadbirlarini muntazam o'tkazib borish (har o'n yilda kamida bir marta).

2. Demografik o'sish va demografik tarkib o'zgarishi prognozlarini shakllantirish hamda ulardan to'liq foydalanish mexanizimini joriy etish.

3. Hududiy va tarmoq dasturlarida demografik ma'lumotlar bazasini yaratish, demografik prognozlash sohasida xodimlar salohiyatini kuchaytirish va buning uchun tegishli funksional asos yaratish maqsadga muvofiqdir.

4. Demografik dividend O'zbekiston Respublikasining bugungi iqtisodiy sharoitida aholining real daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirish

manbasi hisoblanadi. Aholining yosh tarkibida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi ulushining yuqoriligini hisobga olib demografik dividend olish imkoniyatlarini oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun inson kapitalini, shu jumladan, professional va texnik ta'limni investitsiyalash, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar (yengil, oziq-ovqat, kimyo va qurilish materiallari sanoati)ni rivojlantirish, mehnat bozorida mobillikni oshirish tavsiya etiladi.

5. Aholi registrlarining ulkan imkoniyatlarini hisobga olgan holda, aholi registri tizimini joriy qilish.

6. Hududlarda aholining o'sish sur'atlari, demografik vaziyat, hududlararo qiyosiy tahlillar, istiqboldagi holati va uning ijimoiy-iqtisodiy islohotlar, chora-tadbirlarga ta'sirini baholash imkoniyatini kengaytirish maqsadida respublika va hududlarning demografik pasportlarini shakllantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: <https://lex.uz>

2. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ro'yxatga olish to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent. <https://lex.uz/docs/4766082>

3. Q.X. Abdurahmonov va boshqalar. Demografiya: darslik. – T.: Iqtisodiyot, – 2014. – 284 b.

4. Бегалов Б.А. Сколько нас? Определит перепись. Народное слово. 24 апреля 2020 г. Электрон ресурс. [http //xs.uz/site newspaper](http://xs.uz/site newspaper).

5. Алексеев А.И. Социально-экономическая география России. –М.: Новый хронограф, –2013. – С.73.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 387-son qarori. Toshkent. 2016-yil 14-noyabr. <https://lex.uz/docs/3064981>

7. Q.X. Abdurahmonov, X.X. Abduramanov - Demografiya. Noshir, Toshkent - 2011. 47,49 b.

8. Z.N. Tojiyeva. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, –2010. – 113 b.

9. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi 2021-yil 26- oktabr "Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 42-son qarori. <https://lib.stat.uz/uz>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://stat.uz>

11. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012-yil 23- oktabr "Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarining shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 234-mh-sonli buyrug'i, ro'yxat raqami - 2397. <https://lex.uz/docs/2074877>

12. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 1999-yil 29-mart "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomani tasdiqlash to'g'risida"gi 55-sonli buyrug'i. <https://lex.uz>

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy veb-sayti: <https://aholi.stat.uz>

14. Conference of European Statisticians Recommendations for the 2020 Censuses of population and Housing. UNECE, UNITED NATIONS, New York and Geneva, 2015. 11p.

15. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi statistika qo'mitasining rasmiy veb- sayti: <http://new.cisstat.org>

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 11-noyabr "O'zbekiston Respublikasida 2023- yilda aholini ro'yxatga olishga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 710-son qarori. <https://lex.uz/docs/5093951>